

CHOLG‘U IJROCHILIGI VA PSIXOLOGIYA INTEGRATSIYASI: IJROCHILIK MAHORATINI OSHIRISHDA MUSIQIY-PSIXOLOGIK OMILLARNING O‘RNI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i07.010>

Obidova Robiyaxon Habibullo qizi
Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada cholg‘u ijrochiligi va musiqa psixologiyasining o‘zaro integratsiyasi, ayniqsa dutor ijrochilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda psixologik omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Ijrochi diqqatni boshqarish, sahna hayajoni, motivatsiya hamda musiqiy tafakkurning ijro sifati bilan uzviy bog‘liqligi, psixologik tayyorgarlikning texnik va badiiy ijroga ijobiy ta’siri ilmiy va amaliy jihatdan yoritildi.

Kalit so‘zlar: dutor, cholg‘u ijrochiligi, musiqa psixologiyasi, sahna hayajoni, motivatsiya, emotsional barqarorlik, musiqiy tafakkur, ijrochilik mahorati

INTEGRATION OF INSTRUMENTAL PERFORMANCE AND PSYCHOLOGY: THE ROLE OF MUSICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN IMPROVING PERFORMANCE SKILLS

Obidova Robiyaxon Habibullo kizi
Kokand State University

Abstract: This article examines the integration of instrumental performance and music psychology, with particular emphasis on the significance of psychological factors in enhancing the professional performance skills of dutar players. It analyzes the close relationship between performers’ attention control, stage anxiety, motivation, musical thinking, and the quality of musical performance. Furthermore, the study highlights, from both scientific and practical perspectives, the positive impact of psychological preparation on technical proficiency and artistic interpretation in instrumental performance.

Keywords: dutar, instrumental performance, music psychology, stage anxiety, motivation, emotional stability, musical thinking, performance skills

Kirish (Introduction). Zamonaviy musiqa ta’limida ijrochining muvaffaqiyati nafaqat texnik tayyorgarlik darajasi, balki uning psixologik barqarorligi, emotsional boshqaruvi, ijodiy tafakkuri va sahna madaniyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli

musiqa pedagogikasi va musiqa psixologiyasining o'zaro integratsiyasi ijrochilik ta'limining muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Musiqa psixologiyasi insonning musiqani idrok etishi, his qilishi, xotirada saqlashi va ijro etish jarayonida kechadigan psixik holatlarni o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar ijrochi faoliyatida diqqatni jamlash, motivatsiyani shakllantirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash va sahna hayajonini boshqarish badiiy ijroning ajralmas tarkibiy qismlari ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, musiqiy tafakkur va emotsional holatning uyg'unligi musiqiy asarning har tomonlama mazmunan boy, badiiy ta'sirchan va texnik jihatdan mukammal bo'lishiga xizmat qiladi.

Shu ma'noda o'zbek milliy cholg'u san'atida dutor xalq ijrochilik an'analari, maqom va mumtoz musiqa ijrochiligida keng qo'llaniladigan, o'ziga xos tembr xususiyatlari hamda badiiy ifoda imkoniyatlariga ega bo'lgan cholg'u sifatida muhim o'rin egallaydi.¹⁵ Dutor ijrochisidan nafaqat mukammal texnik ko'nikmalar, balki kuy mazmunini chuqur his etish, musiqiy obrazni tinglovchiga ta'sirchan yetkazish, sahnada o'zini erkin tutish va emotsional muvozanatni saqlash ham talab etiladi. Shu bois dutor ijrochiligida psixologik tayyorgarlik texnik mashqlar bilan uzviy bog'liq holda shakllantirilishi zarur

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, texnik tayyorgarligi yetarli bo'lgan ayrim ijrochilar sahna hayajoni, ichki zo'riqish yoki o'ziga bo'lgan ishonchning sustligi sababli o'z ijrochilik salohiyatini to'liq namoyon eta olmaydi. Bunday holatlar, avvalo, diqqatning bo'linishi, mushaklarning ortiqcha taranglashuvi, ijro tempi va ritmik barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Psixologik jihatdan puxta tayyorlangan ijrochilar esa murakkab texnik usullarni ham xotirjam va badiiy mukammallik bilan namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu nuqtai nazardan, cholg'u ijrochiligiga psixologik yondashuvlarni integratsiya qilish, ayniqsa dutor ijrochilarini tayyorlash jarayonida musiqiy-psixologik omillarning o'rnini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Metodlar (Materials and methods). Dutor ijrochilarining kasbiy mahoratini shakllantirishda musiqiy-psixologik omillarning o'rnini aniqlash maqsadida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, suhbat, ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish hamda amaliy tajriba metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu metodlarining o'zaro uyg'un holda qo'llanilishi ijrochilik faoliyatida uchraydigan psixologik holatlarni har tomonlama tahlil qilish hamda ularning ijro sifatiga ta'sirini baholash imkonini beradi.

Dutor yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning individual mashg'ulotlari, ansambl darslari va sahna chiqishlari jarayonida olib borilgan kuzatuvlar davomida talabalarning mashg'ulotlarga bo'lgan munosabati, texnik topshiriqlarni bajarish

¹⁵ I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent. San'at nashriyoti- 2006

sifati, sahnadagi emotsional holati hamda ijodiy faolligi muntazam tahlil qilinadi. Hamda diqqatni uzoq vaqt davomida jamlay olish darajasi, emotsional holatni boshqarish qobiliyati, sahna hayajonini nazorat qilish ko'nikmalari, ichki motivatsiyaning shakllanganlik darajasi, musiqiy tafakkur va badiiy tasavvurning rivojlanganligi, musiqiy xotira hamda eshituv qobiliyatining barqarorligi kabi psixologik ko'rsatkichlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar davomida esa psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan nafasni boshqarish mashqlari, mental tasavvur (*mental rehearsal*), autogen mashqlar, o'z-o'zini ruhiy boshqarish hamda ijobiy ichki dialog usullari muntazam qo'llaniladi. Mazkur usullar texnik mashqlar bilan uyg'unlashtirilib, ijrochining sahnadagi ishonchini mustahkamlash, emotsional zo'riqishni kamaytirish hamda musiqiy obrazni badiiy jihatdan mukammal ifodalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kuzatuv natijalari o'zaro qiyoslanib, psixologik tayyorgarlik elementlarining dutor ijrochilarining texnik mahorati va badiiy ifodaviyligiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi, musiqa ta'limida shaxsning psixologik xususiyatlarini hisobga olish hamda ijrochilik faoliyatini kompleks yondashuv asosida o'rganish tamoyillariga tayaniladi.

Taniqli olim, pedagogika fanlari nomzodi, professor hamda O'zbekistonda musiqa pedagogikasi va musiqa psixologiyasi sohalarining yetakchi asoschilaridan R.G'.Qodirov o'zining "Musiqa psixologiyasi" kitobida musiqiy qobiliyatlarni to'g'ri pedagogik usullar orqali rivojlantirib boriladigan dinamik jarayon sifatida ta'riflaydi. U o'z qarashlarini ifodalar ekan, B.M.Teplov nazariyasiga tayanib, lad sezgisi, musiqiy-eshitish tasavvurlari hamda ritm sezgisini o'stirishning asosiy metodlarini yoritib beradi. O'zbek musiqashunosligida mazkur qo'llanma chiqquniga qadar talabalar asosan rus tilidagi adabiyotlardan (masalan, V.I. Petrushin asarlaridan) foydalanishgan. R.G'.Qodirov ilk bor ushbu murakkab fanning nazariy asoslarini o'zbek tiliga o'girdi va mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirdi. Kitobda keltirilgan metodik tavsiyalardan respublikadagi barcha musiqa maktablari, kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotda keng foydalaniladi.

Kitobdagi asosiy metodlardan lad sezgisini rivojlantirish, musiqa kayfiyatini his qilish uchun turli kuylarni tahlil qilish va ularni Major hamda Minor tonalliklarda solishtirib tinglash, musiqiy-eshitish tasavvurlarini o'stirish, notaga qarab kuylash (vokalizatsiya) va eshitilgan kuylarni xotiradan qayta tiklab, diktant shaklida notaga tushirish, ritm sezgisini shakllantirish, tana harakatlari va plastik modellash orqali musiqa pulsini his qilish, shuningdek, ritmik polifoniya mashqlari o'rin olgan. Asarda muallif musiqiy qobiliyatlarni erta yoshdan faol mashg'ulotlar va o'yinlar orqali rivojlantirish samarali ekanligini ta'kidlaydi¹⁶.

¹⁶ R.G'.Qodirov "Musiqa psixologiyasi" Toshkent "Musiqa" nashriyoti 2005-yil

Natijalar (Results). Pedagogik kuzatuvlar shuni ta'kidlaydiki, dutor ijrochilarining mashg'ulot va sahna faoliyatida psixologik tayyorgarlikning ijrochilik mahoratiga bevosita ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Psixologik omillar texnik ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda badiiy ifodaviylik, sahnadagi erkinlik va ijrochining ichki ishonchini ham sezilarli darajada mustahkamlashini ko'rsatadi. Muntazam psixologik tayyorgarlik elementlari qo'llanilgan talabalarda sahna hayajoni bosqichma-bosqich kamayib, ijro jarayonida o'zini erkin tutish, musiqiy obrazni izchil ochib berish hamda tinglovchilar bilan emotsional muloqot o'rnatish ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, konsert chiqishlari davomida texnik xatolar sonining kamayishi va ijroning barqarorlashuvi kuzatiladi.

Diqqatni jamlashga yo'naltirilgan mashqlar murakkab texnik parchalarning aniq va ritmik jihatdan barqaror ijro etilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida kuzatilgan shoshilish, ritmik beqarorlik va ortiqcha mushak tarangligi keyingi mashg'ulotlarda sezilarli darajada kamayadi. Bu holat ijrochining e'tiborini bir vaqtning o'zida texnik bajarilish va musiqiy ifodaga qaratish imkoniyatini kengaytiradi.

Mental tasavvur (*mental rehearsal*) mashqlari dutor asarlarining badiiy mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ijrochilar kuy xarakterini, dinamik o'zgarishlarni va frazalashni ongli ravishda rejalashtirish orqali musiqiy obrazni yanada yaxlit ifodalashga erishadilar. Natijada ijro nafaqat texnik aniqligi, balki emotsional ta'sirchanligi bilan ham ajralib turadi. Ichki motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan talabalar mustaqil mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratgani, yangi ijro usullarini izlashga intilgani hamda murakkab repertuar ustida izchil ishlagani kuzatiladi. Bunday talabalar pedagog tavsiyalarini amaliy faoliyatga tezroq tatbiq etishi bilan ajralib turadi.

Emotsional barqarorlikning rivojlanishi sahna madaniyatida ham o'z aksini topadi. Psixologik jihatdan tayyorlangan talabalar tinglovchilar oldida o'zini erkin tutadi, ijro davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kichik texnik xatolarni tezda bartaraf etadi hamda asarning badiiy yaxlitligini saqlab qoladi. Bu esa konsert chiqishlarining umumiy sifati va ijrochining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Dutor ijrochiligida diqqatni boshqarish, emotsional barqarorlik, ichki motivatsiya va sahna hayajonini nazorat qilish texnik mahoratning shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi ijrochilik sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Olingan natijalar musiqa ta'limida psixologik tayyorgarlik elementlarini muntazam qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari dutor ijrochiligida texnik tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar ekanligini ko'rsatadi. Dutor ijrochisining badiiy mahorati nafaqat texnik ko'nikmalarning mukammalligi, balki uning emotsional barqarorligi, diqqatni boshqarish qobiliyati va

sahna sharoitiga psixologik moslasha olishi bilan ham belgilanadi. Shu bois zamonaviy musiqa ta'limida ijrochining ruhiy tayyorgarligi texnik mashqlar bilan parallel ravishda rivojlantirilishi zarur¹⁷.

Dutor ijrochiligida tovushning va zarblarning aniqligi, milliy ijrochilik bezaklarining tabiiy ifodalanishi ijrochining ichki ruhiy holati bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, maqom va an'anaviy kuylarni ijro etishda musiqiy obrazni tinglovchiga yetkazish emotsional sezgirlik va ijodiy tafakkurni talab qiladi. Shu jihatdan dator nafaqat texnik mahoratni, balki yuksak badiiy va estetik tafakkurni ham namoyon etuvchi milliy cholg'u sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kuchli sahna hayajoni ayrim ijrochilarda qo'l mushaklarining ortiqcha taranglashuvi, harakatlarning erkinligini yo'qotishi hamda texnik aniqlikning pasayishiga sabab bo'lishi kuzatiladi. Natijada tempning beqarorlashuvi va musiqiy ifodaning sustlashuvi kabi holatlar yuzaga keladi.

Xulosa (Conclusion). Musiqa pedagogikasida texnik tayyorgarlikni psixologik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish zarur. Dutor ijrochisini tayyorlash jarayonida psixologik omillarga muntazam e'tibor qaratish nafaqat ijrochilik mahoratini, balki ijodiy mustaqillik, sahna madaniyati va kasbiy barqarorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy musiqa ta'limi tizimida musiqa psixologiyasi elementlarini maxsus ijrochilik fanlari bilan integratsiyalash kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh dator ijrochilarini tayyorlashning muhim shartlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Dutor ijrochiligida muvaffaqiyat faqat texnik tayyorgarlik bilan emas, balki musiqiy-psixologik tayyorgarlik darajasi bilan ham belgilanadi. Hissiy barqarorlik, diqqatni boshqarish, motivatsiya va sahna madaniyatini shakllantirish ijrochilik mahoratini rivojlantirishning muhim omillaridir. Musiqa ta'limi muassasalarida dator mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga musiqa psixologiyasi elementlarini tizimli ravishda kiritish ijrochilarning kasbiy kompetensiyasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.G'.Qodirov "Musiqa psixologiyasi" Toshkent "Musiqa" nashriyoti 2005-yil
2. I.Rajabov. Maqomlar. Toshkent. San'at nashriyoti- 2006
3. Vygotskiy L. S. Psixologiya iskusstva. Moskva: Pedagogika, 1987.
4. Leontyev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. Moskva: Politizdat, 1975.
5. Lehmann A.C., Sloboda J.A., Woody R. H. Psychology for Musicians. Oxford University Press, 2007.
6. Hallam S. Music Psychology in Education. Institute of Education, University of London, 2010.

¹⁷ Lehmann A. C., Sloboda J. A., Woody R. H. *Psychology for Musicians*. Oxford University Press, 2007.

7. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent: Musiqqa, 2004.
8. Yunus Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent, 1955.